

TAFAKKUR SHAKLLARI

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani

11-maktab psixologi **Nafisa Jabborova**

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani

24-maktab psixologi **Zubayda Ibadullayeva**

ANNATATSIYA: Ushbu maqolada tafakkur to‘g‘risida umumiy tushuncha, tafakkur xususiyatlari, tafakkur shakllari, tushuncha, xukm, xulosa chiqarish (induksiya, deduksiya, analogiya) yuzasidan ilmiy va nazariy ma’lumotlar berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Sezgilarning intensivligi, nutq, tafakkur, tushuncha, tafakkur xususiyatlari, tafakkur shakllari , tushuncha, xukm, xulosa chiqarish, induksiya, deduksiya, analogiya

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odatda nutq tafakkur jarayonida hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi. Shuning uchun hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning spesifik shakllari deb ataladi. Hukmlar narsa va hodisalarda, voqelikda haqiqatdan o‘zaro boqliq bo‘lgan belgilar (alamatlar) hukmlarda ham bog‘liq ravishda ko‘rsatib berilsa yoki voqelikda birbiridan ajratilgan narsa (tomon) hukmlarda ham ajratib ko‘rsatilsa-bu chin hukm deb ataladi. Masalan, "Metallar-elekt tokini o‘tkazuvchidir", "Metallar qizdirilgandan kengayadi" degan chin hukmlardir. Chunki elekt tokini o‘tkazish, qizdirilganda kengayish metallarga xos xususiyatlardir, bu hukmda u yoki bu sholat faqat tasdiqlanib aytilayotir. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari shaqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi. Moddiy olamda haqiqatdan boqliq bo‘lmagan narsa hukmda boqliq qilib ko‘rsatilsa, bunday hukm xato (yolg‘on) hukm deb ataladi. Chunki bu hukmda aks ettirilgan sifatlar (belgi va alamatlar) bu narsalarga aslo muvofiq kelmaydi. Masalan, "Atom-moddaning bo‘linmas zarrachasidir" degan noto‘qri hukmdir. Atom murakkab moddiy tizimga ega bo‘lib, u yadro va elektronlarga bo‘linadi. Atomning yadrosi xam bo‘linadi, bu yadro protonlardan va neytronlardan iboratdir, degan hukmlardir. "Er

quyosh atrofida aylanmaydi" degan misol sham chin bo'lmagan shukmlar doirasiga kiradi. Allaqachonlar inson tomonidan kashf qilingan geliosentr nazariyasi mavjud bo'lib, ana shu nazariyaga asoslangan sholda mazkur qonun shukm surmoqda. Demak, shukmning chinligi, ya'ni voqelikni to'qri aks ettirishi-uning eng mushim xususiyatlaridan biridir. Borliqdagi narsalar, shodisalar va voqelikning miqdoriga, ularning biror shukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, shukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin: 1) tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm. hukmlarning ushbu asoslarga tayanib bo'linishi sifatga qarab bo'linishi deb ataladi; 2) yakka, juz'iy, xususiy va umumiy hukmga ajratilishi mumkin. Hukmlarning bunday belgilarga binoan bo'linishi miqdorga qarab bo'linishi deyiladi; 3) shartli, ayiruvchi va qat'iy shukm singari ko'rinishlar mavjud bo'lib, u shukmlarning munosabatga qarab bo'linishi deb ataladi; 4) hukm taxminiy ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin. Bu shukmda aks ettiriladigan narsa va shodisalar belgisining nechog'lik muhim bo'linishiga yoki voqelikka mos kelish-kelmasligiga bog'liq. Masalan, "Ertaga yomg'ir yoqish mumkin", "Paxta rejasi to'lib qolsa kerak". Hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisalar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi. Narsa bilan belgining aloqasi (bog'liqligi) aks ettirilgan hukm tasdiqlovchi shukm deb ataladi.. Narsa bilan belgi o'rtasidagi biror bog'lanish yo'qligini aks ettiruvchi hukm inkor shukm deb ataladi. Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi shukmda fikran ajratilishi mumkin. Yakka (yolg'iz) narsa va shodisa to'qrisidagi shukm yakka shukm deb ataladi. Bir turkumdagi narsa va shodisalarning shammasi to'qrisida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm umumiy shukm deb ataladi. Xukmda narsa va shodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm shartli hukm deb ataladi. Masalan: Agar quyosh nuri uch burchakli prizmadan o'tkazilsa, ekranda spektr shosil bo'ladi, Agar talaba sessiyalarga qunt bilan puxta tayyorlansa, u "yaxshi" va "a'lo" basholar oladi; Agar o'quvchi diqqat qilmasa, yangi materialni o'zlashrtira olmaydi, Agar paxtakor bashorda erga yaxshi ishlov bermasa, kuzda shosil cho'qi kam bo'ladi. Shukmda narsalar va shodisalariga bir necha belgi nisbatan berilib, shu belgilardan farq bittasi unga tegishli bo'lsa, bunday hukmga ayiruvchi hukm deb ataladi. Misol uchun: Jismlar yo qattiq yoki suyuq, gazsimon sholda bo'ladi; Yer yuzasi fasllarning o'zgarishiga qarab gosh qattiq

isib ketadi, gosh ilib qoladi, gosho keskin soviydi. Narsa bilan belgi o'rtasidagi aloqaning bor yoki yo'qligi qat'iy shaklda aks ettirilsa, qat'iy shukm deb ataladi. Masalan: Neft zapasi jishatidan dunyodagi boshqa davlatlar o'rtasida yetakchi o'rinlardan birida turadi; Yonish kimyoviy jarayondir; Yozgi ta'til davrida talabameshnat otryadlari tuziladi; Bashorda barcha joylarda ko'kalamzorlashtirish ishlari olib boriladi va hokazo. Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o'rtasida aloqa bo'lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u sholda inson o'z fikrini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin: Ehtimol, Marsda organik hayot bordir Yigirma birinchi asr boshlarida fan va texnika progressi shozirgi davrdagidan taxminan uch baravar ortishi mumkin; Jashondagi foydali qazilmalar zapasi yana bir yuz ellik-ikki yuz yilga yetsa kerak va boshqalar. Bunday hukmlar ehtimollik shukmlari deb ataladi. Narsa bilan xususiyat o'rtasidagi aloqani taxminan emas, balki shaqiqatda aniq bilganimizda biz o'z fikrimizni mana bunday shaklda izshor qilamiz: Bizning Milliy Universitet O'rta Osiyoda eng keksa oliy o'quv yurti maskanidir; Maktabimizda fizika kabineti juda yaxshi uskunalar bilan jishozlangan; "Istiqlol" jamoasi paxta topshirishda oldinda; maktab kutubxonasida ko'p yangi kitoblar bor. Bunday hukmlar voqelik (assertorik) shukmlari deb ataladi. Hukmning shunday yuqori shakli borki, unda faqat haqiqatda bo'lgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. Masalan, Butun dunyoda, tinchlik qalaba qozonishi muqarra; Bazisning o'zgarishi va tugatilishi ustqurmaning o'zgarishi va tugatilishiga sabab bo'ladi; Sezgi chegarasining me'yori qanchalik kichik bo'lsa, mazkur analizatorning sezgirligi shunchalik yuksak bo'ladi; Sezgilarning intensivligi qo'zqatuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. Bunday shukmlar zarurlik (apodiktik) shukmlari deb ataladi. Bunday shukmlarda inson narsa (voqelik, shodisa) bilan uning xususiyati o'rtasida mashkam boqlinish borligini va bu boqlanishga zid keladigan boshqa bir sholning bo'lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi. Psixologiyada hukmlar ikkita asosiy yo'l bilan shosil qilinishi ta'kidlab o'tiladi. Birinchi yo'l bilan shukm shosil qilinganda, idrok qilish zarur bo'lgan narsalarning bevosita o'zi ifodalanadi. Ikkinchi yo'l bilan esa bavosita muloshaza yuritish yordami bilan shukm amalga oshiriladi. Dastavval olimlar kashfiyot yoki ijodiy jarayonda nazariy jishatdan muloshaza yuritish yordamida hukm chiqaradilar. Ular

chiqargan hukmning to‘qriligi amaliyotda keyinchalik tasdiqlanadi, bu ikkinchi yo‘l bilan hukm chiqarishga misoldir. Xulosa chiqarish Bir qancha shukmlarning mantiqiy boqlanishi natijasida shosil bo‘lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida aloshida ahamiyatga ega. Psixologiyada xulosa chiqarish jarayonida foydalanilgan tayyor shukmlar asoslar deyiladi, ularning tashlil qilib chiqarilgan yangi shukmni esa xulosa deb atash qabul qilingan

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. G‘oziyev .E.(2020) “Ontogenez psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent “NIF MSH”
2. Jalilova.S.X. (2020) “Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya” o‘quv qo‘llanma. Toshkent “Innovotsiya -Ziyo”.
3. G‘oziyev .E.(2002) “Umumiy psixologiya” 1-kitob darslik . Toshkent “Universitet”.
4. G‘oziyev .E.(2002) “Umumiy psixologiya” 2-kitob darslik . Toshkent “Universitet”.
5. Xolov.O.Ch (2020) “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent “Innovotsiya -Ziyo”.